

ТЕХНОЛОГИЯ ВА ДИЗАЙН ФАНИДАН ТАЛАБALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Baxtishodova Saltanat
Do'satova Ovatoy
GulDU talabasi*

Anotatsiya: Ushbu maqola Texnologiya va dizayn fanidan talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish, bilmini mustahkamlash va amaliyotda to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakillantirishda interfaol usullardan foydalanish kuzda tutilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, interfaol usul, mustaqil ta'lim, seminar mashg'ulot, amaliy tayyorgarlik, ilmiy tadqiqot, nazariy bilim, model, maket,

Talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini tekshirishni bu uslubi butun tekshirish tizimida asosiy usublardan biri hisoblanadi. Psixologlarni ta'kidlashicha, o'quv materialni kitob bo'yicha yoki o'qituvchini tushuntirishi bo'yicha talabalarni eslab qolish yo'li bilan bir marta ishlab chiqilganda, hatto kuchli talabalar ham uning taxminan 70-75%ini yaxshi o'zlashtirgan bo'ladilar. Demak mustaqil o'rganishga berilgan topshiriqlarni tekshirish, nazorat qilishning boshqa usublari bilan bir qatorda, o'quv materialini o'zlashtirish sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Agar tekshirish uslubi yangi o'rganilayotgan mavzu bo'yicha mustahkam bog'liq bo'lsa va butunlay uning asosida tuzilgan bo'lsa, unda mustaqil o'rganishga berilgan topshiriqlarni dars boshlanishidan oldin so'rash ma'qul va ahamiyatli uslubdir.

O'qitilayotgan fanning xususiatlaridan kelib chiqqan holda, talaba mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanishi mumkin. Fan dasturlarida talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmini ifoda etiladi.

Mustaqil ishlar shakllari. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlari, shuningdek har bir talabaning o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot(referat) tayyorlash;
- seminarlar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;
- loyihalar va amaliy topshiriqlarni bajarish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarni yechimlarini topish;
- maket, model va namunalar yaratish;
- hisoblash va grafik ishlarni bajarish;

-berilgan mavzu bo'yicha kompyuterlardan kerakli ma'lumotlarni mustaqil izlab topish va referat tayyorlash;

-elektron darsliklardan foydalanib topshiriqlarni bajarish;

Talaba mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda har bir fan bo'yicha tegishli bo'limlarda mustaqil ishining tashkiliy shakllari, savollar va topshiriqlar majmui ishlab chiqiladi.

Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar bo'yicha talabalarga zaruriy uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Og'zaki mustaqil topshiriqlar:

-darslik bo'yicha materialni o'rganish va takrorlash, chizmalar va sxemalarni o'qish, turli texnik adabiyotlar hujjatlar va materiallarni o'rganish asosida o'qituvchi savollariga javob tayyorlash, ishlab chiqarish faoliyati tahlili kabilar kiradi. Materiallarni anglab mustahkamlash va yodlashga mo'ljallangan.

Yozma mustaqil topshiriqlar:

-hisoblash uchun berilgan vazefalarni bajarish umumlashturuvch va takrorlavchi jadvallarni to'lrish , texnologik xaretalarni ishlab chiqish , laboratoriya amaliy ishlar to'g'risida hisobotlar tuzi sh va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi .

Grafik mustaqil topshirqlar

-ularga turli chizmachilik ishlarni eskizlashtirish , kesmalar va kesishmalarni tasvirlash ayrim detal va tugunlarni chizib ko'rsatish va sxemalar ,grafiklar, diagrammalarni tuzish , kuzatish natijalarini tasvirlash va Shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi .

Amaliy xarakterdagi mustaqil topshiriqlar .

-talabalar o'qituvchi topshirig'i asosida mustaqil ishni bajarish jarayonida ma'lum detal tayyorlash, tugun va mexanizimlarni yig'ish , texnik jarayonlarni ishlab chiqadilar . Ushbu ishlarni bajarganda talabalar asbob-uskunalarni tanlash , ishlov berish rejasini aniqlash va hisoblash , yangi moslamalarni loyihalash , maket va modellar , namunalar kabi ishlarni amalga oshiriladi .

Mustaqil ishlarni ishlab chiqish

Har bir fan bo'yicha talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish yuklamasin o'qituvchi shaxsiy ish rejasida qayd etiladi .

Talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedrada tuzilgan ,kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadigan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi .

Talabaning mustaqil ishi bo'yicha maslahat soatlari guruh jurnalida qayd etilib boriladi .

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi ,muayyan fan o'quv dasturida ajratilgan soatlarga mos baholanadi va natijasi bo'yicha talabaning umumiy bahosiga kiritiladi .

Talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichlari ,shu jumladan mustaqil ishi bo'yicha olgan baholar guruh baholash oynasida yoritib boriladi .

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari tegishli kafedra tomonidan belgilanadi .Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili (semestri) boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Fanlar kesimida talabalarning mustaqil ishlari guruhlarda , kafedra yig'ilishlari, fakultet kengashida muhokama etib boriladi.

Talabaning mustaqil ishi bo'yicha bajargan ishlari (hisobot ,referat , hisoblashlar va h.k) ro'yhatga olinadi va o'quv yili mobaynida saqlanadi .

Yuqori darajada baholangan talabalarning mustaqil ishlari ma'naviy na moddiy jihatdan rag'batlantiriladi.

Ta'lim muassasalarida mustaqil ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun rahbariyat va o'qituvchilar ayni vaqtda ham yaxshi pedagog, ham mutaxasseslik sirlarini yaxshi biladigan mutaxassislar bo'lishi kerak

Ta'lim muassasalarida mustaqil ishlarni samarali tashkil etish uchun quyidagilarga asosiy e'tiborin qaratish kerak :

-talabalarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni ,shakli , metodi va vositalarini tokomillashtirish:

-ta'lim ,tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi umumpedagogika va maxsus tayyorgarlikning uzviyiligini ta'minlash ;

-ilg'or pedagogika va ishlab chiqarish tajribalarini ,fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim –tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat .

Mustaqil ishlarda ishtirok etish ta'lim muassalaridagi barcha rahbarlar , o'qituvchilar , muhandes-pedagoglar uchun majburiy bo'lib ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi .

Mustaqil ishni baholash mezonlari ta'lim yo'nalishlari va mustaxassislik fanlarining xususiatlaridan kelib chiqib alohida tuzulishi mumkin .

Talabalar mustaqil ishlari ; Talabalar mustqil ishlari Texnologiya ta'limi darslarini asosiy bosqichi bo'lib, unga O'quv vaqtining 80% gacha qismi ajratiladi . Talabalar mustqail ishini boshqarish o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab qilinadi . O'quv jarayonini muntazam va rejali kuzatish hamda nazorat qilish bilan topshiriqni bajarish saviyasi, Texnologiyada o'z bilimlaridan qanday foydalanayotganliklari va boshqalarga qarab umumiy xulosa olishi mumkin .

Har bir dars xulosa bilan tugallanadi . Xulosalar chiqarish talabalar bilim va malakalarini baholash bilan yakunlanadi .

O'qituvchi har bir bajarilgan ishni tahliliy ravishda ochiqchasiga aytib tahlil qiladi, talabalar o'zlarini ishlari haqida ma'lumot oladilar.

Mustaqil o'rganishga berilgan topshiriqlarni tekshirish.

O'quv materialining xususiyatiga, dars tipiga, uning maqsad hamda vazifalariga to'la to'kis muvofiq keladigan tekshirish uslubi to'g'ri tanlangan uslub hisoblanadi. Mustaqil o'rganishga berilgan topshiriqlarni tekshirishni, yangi materialni mashqlari bilan qo'shib olib borish o'zining ijobiy tomonini ko'rsatadi. Bunga hamma talabalar ishga jiddiy kirishib ketdilar, chunki uyga berilgan vazifa yuzaki emas, balki astoyidil tekshirilayotganini ko'radilar va shu sababli ularning vazifalarni bajarishga bo'lgan munosabati o'zgaradi.

O'quv kabineti va xona hamda ustaxonalarni tozalash. Talabalar ishni tamomlaganlaridan keyin o'z ish o'rinlarini va umuman xonani tartibga keltirish kerak. O'qituvchini ish o'rnini talabalar uchun namuna bo'lish kerak.

Mustaqil ish bo'yicha vazifa.

1. "Aqliy hujum" metodining yozma ko'rinishini amalga oshirish bo'yicha mavzu tanlash va ishlanmasini tayyorlash.

2. "Kichik guruhlarda ishlash" metodiga mavzu tanlash va ishlanmasini tayyorlash.

3. "Muammoli vaziyat" metodiga mavzu tanlash va ishlanmasini tayyorlash. Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvni vujudga kelishi qanday bo'lgan?

2. Pedagogik texnologiyalar metodlarini tanlash va qo'llashning qanday umumiy mezonlari bor?

3. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalari qanday joriy etiladi?

4. O'qitishning interaktiv metodlari qay tariqada qo'llaniladi?

5. Xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan pedagogik texnologiya tushunchasiga qanday ta'rif berilgan?

6. Interfaol metodlarni mohiyati qanday?

7. Interfaol usullarni qo'llash bo'yicha qanday metodik tavsiyalar bor?

Rivojlangan bir qator mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarini o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'analaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda respublikamizning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish bugungi kunning talabidir.

Innovatsiya texnologiyalari o'qitish jarayonida yuqori malakali, raqobatdosh o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy omilkorliklarini shakllantirish, metodik mahoratini ko'tarish, o'qituvchi-pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish omili bo'lib qolmoqda.

Shuning uchun ta'lim muassasalarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rnini va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim,

tajriba va interaktiv metodlar talabalarini bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Z.Murtozayev. Texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini amaliy saviyasini oshirishning uslubiy pedagogik asoslari. Monografiya.-T: "Fan va texnologiya", 2017, 120 bet.
2. N.A. Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Quysiyov. Texnologiya ta'limi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarini 5-sinflar uchun. Toshkent. 2013y.
3. M.Z.Murtazaev, A.A.Qushaqov, A.G.Axmedova va boshqalar .5-7 sinflarga uchun mehnat ta'limi yog'ochlarga ishlov berish texnologiyasi yo'nalishi bo'yicha(3 ta) darsliklar. T.: "fan va texnologiya", 2012yil